

“SHAXS SHAKLLANISHI VA IJTIMOY MUVAFFAQIYATIDA OILANING AHAMIYATI”

Andijon davlat pedagogika instituti psixologiya
va pedagogika kafedra o‘qituvchisi Tojiboyeva Nodiraxon
Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika
fakulteti pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich
102-guruh talabasi Valijonova Ruxshona

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19413150>

Annotasiya: Mazkur maqolada shaxs shakllanishi jarayonida oila muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Oila insonning dastlabki tarbiya maskani bo‘lib, unda bola axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy me‘yorlar va hayotiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi. Mazkur mavzuda oilaning shaxsning ma‘naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishidagi o‘rni, shuningdek, uning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishiga ta’siri yoritiladi. Ota-ona tarbiyasi, oiladagi sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash shaxsning jamiyatda faol, mas’uliyatli va muvaffaqiyatli bo‘lib shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, oiladagi to‘g‘ri tarbiya va ijobiy muhit shaxsning barkamol bo‘lib voyaga yetishida katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Oila, shaxs shakllanishi, tarbiya, ijtimoiy muhit, ma‘naviy qadriyatlar, ota-ona tarbiyasi, ijtimoiy muvaffaqiyat, shaxs rivojlanishi, oilaviy munosabatlar, barkamol avlod.

Аннотация: Семья является важной социальной средой в процессе формирования личности. Семья — это первое место воспитания человека, где ребенок усваивает нравственные ценности, социальные нормы и жизненные навыки. В данной теме раскрывается роль семьи в духовном, нравственном и интеллектуальном развитии личности, а также её влияние на достижение социального успеха в будущем. Родительское воспитание, здоровая семейная атмосфера, взаимное уважение и поддержка являются важными факторами формирования активной, ответственной и успешной личности в обществе. Поэтому правильное воспитание и положительная атмосфера в семье имеют большое значение для гармоничного развития личности.

Ключевые слова: Семья, формирование личности, воспитание, социальная среда, духовные ценности, родительское воспитание, социальный успех, развитие личности, семейные отношения, гармонично развитое поколение.

Abstract: Family is an important social environment in the process of personality formation. The family is the first place of upbringing where a child acquires moral values, social norms, and life skills. This topic highlights the role of the family in the spiritual, moral, and intellectual development of an individual, as well as its influence on achieving social success in the future. Parental upbringing, a healthy family environment, mutual respect, and support are important factors in shaping an active, responsible, and successful person in society. Therefore, proper upbringing and a positive environment in the family play a significant role in the development of a well-rounded individual.

Keywords: Family, personality formation, upbringing, social environment, spiritual values, parental upbringing, social success, personal development, family relationships, well-rounded generation.

Kirish: Psixologiyada motivatsiya inson faoliyatini harakatga keltiruvchi asosiy ichki omil sifatida talqin etiladi. Har bir insonning xulq-atvori, maqsad sari intilishi va faoliyat natijalari uning ehtiyojlari, qiziqishlari, mayllari hamda ongli intilishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan shu

omillar shaxsni muayyan faoliyatga undaydi va uning barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, insonning muvaffaqiyatga erishishi faqat bilim va qobiliyat bilan emas, balki ushbu imkoniyatlarni faol harakatga aylantira oladigan motivatsiya darajasi bilan ham belgilanadi. Kuchli motivatsiya shaxsni qiyinchiliklarni yengishga, maqsad sari qat’iyat bilan intilishga va o’z faoliyatini ongli ravishda boshqarishga undaydi. Shu bois motivatsiya inson hayotidagi muvaffaqiyatning muhim psixologik asosi sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism : Oila — shaxsning ijtimoiy qiyofasini belgilab beruvchi asosiy poydevor hisoblanadi. Insonning jamiyatda muvaffaqiyat qozonishi bevosita oilaga bog’liq holda bo’ladi. Bolada o’z-o’ziga bo’lgan ishonch shakllanadigan ilk maskan bu oila hisoblanadi. Ota-onaning qo’llab-quvvatlashi shaxsda "men uddalay olaman" degan ichki ishonchni uyg’otadi. Bu ishonchsiz bola ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish qiyin. Halollik, mehnatsevarlik va mas’uliyat kabi xislatlar nazariy bilim orqali emas balki oiladagi hayotiy misollar orqali bolaga singdirilib boradi. Jamiyatda o’z o’rniga ega bo’lgan shaxslarning aksariyati tartib-intizomni aynan uydagi tarbiya jarayonida o’rgangan. Odamlar bilan muloqot qilish, nizolarni tinch yo’l bilan hal etish va jamoada ishlash ko’nikmalari oiladagi o’zaro munosabatlar asnosida shakllanadi. Oila — kichik bir jamiyat bo’lib, u bolani katta hayotga tayyorlaydi.

Sog’lom oilaviy muhit inson uchun "xavfsiz bandargoh" vazifasini o’taydi. Atrofidagi qiyinchiliklar va stresslarga qaramay, oilasidan kuch oladigan farzand ijtimoiy va professional sohada ham yuqori choqilarga tezroq erishadi. Hayotda muvaffaqiyatga erishish ta’lim jarayoni bilan cheklanmaydi — motivatsiya mehnat faoliyatida ham muhim o’rin tutadi. Kuchli motivatsiya shaxsni professional maqsadlar sari intiladi, yangi ko’nikmalarni egallashga undaydi, hamda qiyinchiliklarni engib o’tishiga yordam beradi. Tashqi rag’batlar bilan birga, ichki motivatsiya shaxsning mustaqil fikrlashi va o’z yo’lini belgilashida muhim rol o’ynaydi, bu esa muvaffaqiyatning uzluksiz taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Xulosa: Oila shaxs shakllanishida eng muhim va asosiy ijtimoiy muhit hisoblanadi. Insonning dunyoqarashi, axloqiy qarashlari, hayotga bo’lgan munosabati va jamiyatdagi o’rni, avvalo, oilada shakllanadi. Bola ilk bor oilada mehr-muhabbat, hurmat, mas’uliyat, hamjihatlik kabi insoniy fazilatlarini o’rganadi. Ota-onaning e’tibori, g’amxo’rligi va to’g’ri tarbiyasi farzandning kelajakdagi hayot yo’lini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, oiladagi sog’lom muhit, o’zaro hurmat va qo’llab-quvvatlash shaxsning ma’naviy, axloqiy hamda intellektual rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Oila farzandga nafaqat bilim va tarbiya beradi, balki unda mustaqil fikrlash, to’g’ri qaror qabul qilish va jamiyatda faol bo’lish kabi muhim hayotiy ko’nikmalarni ham shakllantiradi. Agar oilada farzandga e’tibor kuchli bo’lsa, ota-ona farzandining qiziqishlari, orzu-intilishlarini qo’llab-quvvatlasa, bunday muhitda voyaga yetgan shaxs o’z oldiga aniq maqsad qo’ya oladigan, irodali va mas’uliyatli inson bo’lib yetishadi. Bu esa uning kelajakda jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, oilada shakllangan ijobiy qadriyatlar shaxsning butun hayoti davomida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik, sabr-toqat kabi fazilatlar insonning nafaqat shaxsiy hayotida, balki ijtimoiy faoliyatida ham muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Oila farzand uchun ishonch, himoya va qo’llab-quvvatlash manbai bo’lib xizmat qiladi. Shunday ekan, har bir jamiyatning taraqqiyoti avvalo mustahkam va sog’lom oilalarga bog’liq. Oilada berilgan to’g’ri tarbiya kelajakda jamiyat uchun foydali, ma’naviy yetuk va barkamol shaxslarni voyaga yetkazadi. Shu sababli ota-onalar farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishi, oilada ijobiy muhit yaratishi va farzandlarga yaxshi namuna bo’lishi zarur. Ana shundagina jamiyatda ma’naviy jihatdan boy, bilimli va ijtimoiy faol avlod shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdulla Avloniy. *Turkiy guliston yoxud axloq.* – Toshkent: O’qituvchi, 1992.

2. Islom Karimov. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. ShavkatMirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtamaksusta’lim vazirligi. *Pedagogika*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Zakharov, A. V. *Shaxsning psixologik rivojlanishi va ichki motivatsiya*. Moskva: